

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ		
ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ		
ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i>		
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI		
VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i>		
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK		
ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi</i>		
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM		
MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna</i>		
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luhmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	Луҳмонов Шаҳзод Сайфиддин ўғли
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-		
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH		
TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li</i>		
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI		
(UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich</i>		
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY		
YO'NALISHLARI		81-88

*Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич*  
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ  
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*  
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*  
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*  
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*  
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA ..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*  
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich*  
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI ..... 135-142

*Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi*  
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
 OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*  
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
 TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*  
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*  
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*  
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
 UZBEKISTAN ..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*  
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
 TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*  
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
 XUSUSIYATLARI ..... 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ .....	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI .....	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI .....	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI .....	234-243
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI .....	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI .....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI .....	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OVALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY .....	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI .....	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION .....	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	283-287

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarikovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI .....	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI .....	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI .....	391-396

## 12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ .....	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА .....	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ .....	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР .....	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ .....	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA .....	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ .....	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ .....	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ .....	463-469

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH .....	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024

**Accepted:** 5 November 2024

**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS OF FACTORS, INFLUENCERS AND DEVELOPMENT OF THE SPHERE OF EVERYDAY LIFE AND THE LEVEL OF POVERTY**

**Rajabov Navruzbek Azimjonovich**

Independent applicant for the specialty "Economics of the service sector",  
Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** The article systematically analyzes the essence of poverty, the development of the household service sector, and the endogenous and exogenous factors that affect poverty reduction, and based on the relevant conclusions, suggestions are made.

**Key words:** poverty, poverty reduction, low income, endogenous, exogenous, factor, global, index, innovation, property, tax, entrepreneurship.

## **МАИШИЙ ХИЗМАТ КО'РСАТИШ СОHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI**

**Rajabov Navruzbek Azimjonovich**

"Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi mustaqil izlanuvchisi,  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

**Annotasiya.** Maqolada kambag'allikni mazmun mohiyati, maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi va kambag'allikni qisqartirishga ta'sir etuvchi endogen va ekzogen omillar tizimli tahlil etilgan va tegishli xulosalar asosida takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, kambag'allikni qisqartirish, kam ta'minlanganlik, endogen, ekzogen, omil, global, indeks, innovatsiya, mulk, soliq, tadbirkorlik .

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N22>

**Kirish.** Mamlakatimizda kambag'allik ko'p yillar davomida "yopiq mavzu" bo'lib keldi. Bu kategoriyaning o'rniga "kam ta'minlanganlik", "ehtiyojmandlik", degan tushunchalardan foydalandik. Lekin kambag'allik darajasi kamayib qolmadi. Tan olaylik, keyingi to'rt yildagi ochiqlik siyosati tufayli "qozonda bori cho'michga chiqdi". Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmi yo'lga qo'yilgach, haqiqiy ahvol, ya'niki odamlarning aslida qanday hayot kechirayotgani, ularning eng og'riqli nuqtalari oshkor bo'la boshladi.

Mamlakatimizdagi islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdir. Shu bois, Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqimiz turmushini yaxshilash yo'lida juda katta vazifalarni amalga oshirishga kirishildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PF-29-son [1] va 2021-yil 11-avgustdagি

“Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko’rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko’lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6277-son [2] farmonlari hamda 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-31-son qarori [3] bugungi kun talabidan kelib chiqib qabul qilingan yana bir muhim huquqiy asosdir.

Keyingi yillarda bu borada davlat siyosatini markazdan mahalla darajasigacha yuritadigan vertikal tizim joriy qilingani quvonarli yangilik. Yoshlar masalalari bo‘yicha har bir tumanda alohida hokim o‘rbinosari, xotin-qizlar masalalariga har bir mahallada alohida rais o‘rbinosari mas’ul etib belgilanishi ham e’tirofga arziydigan voqyeilik. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur yo‘nalish doirasida mahallalar va oilalarda muammolarni aniqlash, ularning yechimi bo‘yicha takliflar berish va kerakli chora-tadbirlarni amalga oishirlishini taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So‘ngi yillarda iqtisodchi ilmiy izlanuvchilar, tegishli vazirlik mutaxassislari tomonidan davlatimizda kambag‘allikni qisqartirish masalasida keng ko’lamli izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, i.f.d. M.Kalonov o‘zining ilmiy tahliliy maqolasida “kambag‘allik” tushunchasini shu kungacha “yopiq mavzu” bo‘lib kelganligini va u “kam ta’minlanganlik”, “ehtiyojmandlik”, degan tushunchalardan farq qiladi, deya ta’kidlagan [4].

O‘zbekistonda aholi sonining yuqori sur’atlar bilan o’sishi tufayli demografik siyosat oilani rejalashtirish va o’lim darajasini kamaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shunga asoslanib aytish mumkinki, davlatning demografik siyosati – turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish vositalaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi hukumati endilikda oilani rejalashtirish siyosatiga mamlakatda kambag‘allik darajasini kamaytirish, aholi salomatligi va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida qarashi maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan [5].

N.Ernazarova esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari, jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan [6].

Iqtisodchi olim R.Xasanov quyidagicha xulosalar bergan: O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash haqida gapirganda, turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagи odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag‘allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtai nazardan, qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko‘p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan, muhtoj odamlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko’rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobjiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo‘ladi. Albatta, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash zarur, ammo kambag‘allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda, unga qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar o‘zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o‘zlarini zarur daromadlari bilan ta’minkaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish omillarini o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlarimiz davomida tadqiqot metodologiyasining tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash kabi usullar qo'llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Kambag'allik – bu hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo'lib, o'zi xohlagan ishlarni davom ettirishi mumkin bo'lмаган shaxs yoki ijtimoiy guruhnini iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyatidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirda jahon bo'ylab kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rifi ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emas. Dunyoning boshqa mamlakatlaridagi singari bizda ham kambag'al qatlam mavjud. Ular taxminan 12-15 foizni tashkil etishi ham rost. Bu 4-5 million nafarga teng odam degani. Qarang, ana shu yurtdoshlarimizning bir kunlik daromadi o'tgan yil boshida Prezidentimiz qayd etganidek, 10-13 ming so'mdan oshmas ekan [4]. Ijtimoiy hayotning hozirgi sharoitida maishiy xizmatlar sohasining ko'lami kengayib, ularning inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borishi kuzatilmoqda. Bunga asosiy sabab iqtisodiyotning har bir sohasida bevosita ishchi kuchi va aqliy mehnat mahsuli bo'lgan xizmatlar hal qiluvchi o'rin egallashi hamda mulkchilik huquqlarining o'zgarishidir. Bu esa, zanjir reaksiyasi singari butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimga tarqalmoqda. 2017-yildan boshlab qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" [7] gi Farmoni va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi hamda, respublikamizda bir qator xizmatlar o'zgarishlarni amalga oshirilishiga sababchi bo'ldi. Jhon xo'jaligi maishiy xizmatlar evolyusiyasi dinamikasiga bag'ishlangan ilmiy ishlari natijalari mazkur jarayonga ta'sir qiluvchi bir necha omillarni ajratib olishga zamin yaratadi. Ularga asosan uchta muhim omillar guruhini: endogen va ekzogen omillar hamda ularning kompleks ta'sirini kiritish mumkin. Maisiy xizmatlar sohasini rivojlantiish asosida kambag'allikni qisqartirishning endogen omillari - bu mavjud iqtisodiy tizim o'zgarishiga olib keladigan ichki omillardir. Ularga asosan iqtisodiy xarakterdag'i ijtimoiy yo'naltirilgan omillar kirdi. Bu tadbirkorlik sektori va uy xo'jaliklarining mavjud vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan ishtiyoqi bo'lib, farovonlik darajasini oshirishga intilish, shuningdek, ma'lum ahloqiy va madaniy qadriyatlar doirasida ma'naviy rivojlanishga intilishlaridan iborat. Dunyo davlatlari tarixidagi odamlarning ixtirochilik va novatorlik faoliyatiga asoslanib har qanday shaklda innovasiyalarni kiritilishi ham maishiy xizmatlarni rivojlantirishning endogen omillari bo'lib xizmat qiladi.

Kompleks ta'sir omillari - endogen va ekzogen omillarning turli darajalardagi birgalikdagi ta'siridir. Ushbu omillarning kompleks ta'siri natijasida umumiy iqtisodiyotdagi o'zgarishlar ta'sirining kuchayishi va kambag'allik vaziyatining sezilarli darajada siljishiga olib keladi.

Biz maisiy xizmatlar sohasini rivojlantiish asosida kambag'allikni qisqartirishga ta'sir qiluvchi yuqorida qayd etilgan omillar ta'sir darajasini jahon bo'yicha hisob-kitobni amalga oshiradigan indekslar orqali tahlil etish maqsadga muvoviq deb topdik va ular qatoriga quyidagilarni kiritdik:

- jahon global raqobatlashuv indeksi. U Institute of Management Development (Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan) tomonidan tahlil qilinib, mamlakat real sektorini raqobatbardoshlik darajasini aniqlash bilan shug'ullanadi. Unda 333 ta ko'rsatkichni o'zida jamlagan iqtisodiyot holati, davlat samaradorligi, ishbilarmonlik sohasi holati va infratuzilmani tahlil qiladi. O'zbekiston bu reytingga kirmaganligi sababli biz uni tahlil qila olmadik;

- global innovatsion indeks. U INSEAD xalqaro biznes-maktab, Cornell University, World Intellectual Property Organization – Intelektual mulk bo'yicha xalqaro tashkilot tomonidan tahlil qilinadi. Bizga uni tarkibiy subindeksi bo'lgan "Boshqaruv institutlari sifati"ni tahlil qilish muhimdir;

- iqtisodiy erkinlik indeksi. Bu indeks Heritage Foundation va The Wall Street Journal hamkorligida 1995-yildan buyon yuritiladi. Mamlakatda real sektordagi maisiy xizmatlar sohasini rivojlantiish asosida kambag'allikni qisqartirishni amalga oshirish jarayonini tahlil qilishimizda aynan mazkur indeksni ko'rib o'tishimiz muhimdir. Ushbu indeks kambag'allikni qisqartirish bo'yicha jamiyatdagi asosiy rasmiy institutlarni va ularning o'zgarishini qamrab olgan.

Har doim ham bu reytingdagi ko'rsatkichlar ma'lum davlatdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni to'g'ri baholay olmaydi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, ba'zan dunyodagi siyosiy vaziyat yoki ma'lum bir davlatlar tazyiqi ostida ham reyting ko'rsatkichlari o'zgartirilishi mumkin. Shu jumladan, Ukrainadagi harbiy operasiyasi boshlanishi bilan bank tizimiga baho beradigan va boshqa xalqaro reytinglarda Rossiyaning o'rnini keskin tushirilishi kuzalmoqda.

Bizning fikrimizcha, maisiy xizmatlar sohasini rivojlantiish asosida kambag'allikni qisqartirishni amalga oshirish va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda "Global innovation indeks" tarkibiga kiruvchi "Boshqaruv institutlar sifati" subindeksini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. U o'z ichiga 3 ko'rsatkichni qamrab oladi:

- mamlakatdagi siyosiy muhit. Ushbu ko'rsatkich 2015-yilgacha bo'lgan davrda o'z ichiga 3 ta subindeksni olgan: siyosiy va operasional barqarorlik, hukumatning samaradorligi va matbuot erkinligini olgan. 2015-yildan so'ng siyosiy muhitni aniqlashda oxirgi ko'rsatkich tahlili olib tashlangan;

- me'yoriy muhit. U o'z ichiga me'yoriy-huquqiy sifat, huquq ustuvorligi, ishdan bo'shash xarajatlarni oladi;

- ishbilarmonlik muhiti. U 2020 yilgacha o'z ichiga biznesni yo'lga qo'yishning soddaligi, bankrotlikni hal etishning soddaligi, soliqlarni to'lash qulayligini olgan. 2020-yildan boshlab indeksdan soliqlarni to'lash qulayligi ko'rsatkichi olib tashlangan (1-jadval).

1-jadval

**O'zbekistonning "Global innovation indeks" tarkibiga kirgan "Boshqaruv institutlar sifati" subindeksi  
(ballda)[8]**

№	Indikator	Yillar												Reyting o'zga- rishi	
		2012		2013		2014		2015		2020		2023			
		1	2	1	2	1	2	1	2	1	2	1	2		
	<b>Boshqaruv institutlar sifati</b>	34,4	128	45,4	126	46,1	124	49	106	55,1	95	55,8	94	+34	
1	Siyosiy muhit	34,6	128	36,1	131	36,1	134	33,3	115	46,7	98	47,6	95	+33	
1.1	Siyosiy va operasional barqarorlik	46,6	106	51,2	101	52,9	97	50,6	100	64,3	83	64,3	80	+26	

	(Political and operational stability)													
1.2	Hukumatning samaradorligi (Government effectiveness)	20,0	119	17,3	120	15,8	129	16,1	126	37,9	100	39,2	99	+20
1.3	Matbuot erkinligi (Press freedom)	37,2	126	39,6	133	39,6	136	m/e	m/e	m/e	m/e	m/e	m/e	
2	Me'yoriy muhit	42,2	129	45,0	123	45,2	123	45,7	121	48,6	107	49,9	107	+22
2.1	Me'yoriy sifat (Regulatory quality)	11,4	139	8,0	140	6,7	141	4,4	139	12,7	127	17,5	126	+13
2.2	Huquq ustuvorligi (Rule of law)	11,4	139	9,7	139	11,5	138	15,6	133	18,7	124	19,1	123	+16
2.3	Ishdan bo'shash xarajatlari (Cost of redundancy dismissal)	21,7	95	17,3	82	17,3	81	17,4	81	17,3	69	17,3	69	+26
3	Tadbirkorlik muhiti	26,6	117	55,0	99	56,9	93	67,9	76	69,8	72	69,8	72	+45
3.1	Biznesni yo'lga qo'yishning soddaligi (Ease of starting a business)	37,4	88	87,0	54	92,5	22	89,0	55	96,2	8	96,2	8	+80
3.2	Bankrotlikni hal etishning soddaligi (Ease of resolving insolvency)	25,8	104	41,4	64	42,2	55	46,5	72	43,5	90	43,5	90	+14
3.3	Soliqlarni to'lash qulayligi (Ease of paying taxes)	16,5	117	36,7	135	36,1	134	68,3	92	m/e	m/e	m/e	m/e	

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar yuqori baholanib, boshqaruv institutlari subindeksi 2012-yilgi 34,4 balldan 2021-yilda 55,8 ballga ko'tarildi. Bu mamlakatimizni reytingda 34 pog'ona 128 o'rindan 94 o'ringa ko'tarilib olishga imkoniyat yaratib, quyidagi ijobjiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

- mamlakatda biznes yuritish muhitining yaxshilanishiga olib keldi;
- xorijiy investorlarning investision qarorlarni qabul qilishda kafolatlarni oshirdi;
- mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'sining oshishi hamda turli "qora ro'yxat"lardan xoli bo'lishi kuzatilmogda;
- mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik darajasi ortmoqda.

O'zbekistonda "Boshqaruv institutlari sifati" tarkibiga kiruvchi siyosiy muhit ko'rsatkichi 2012-2023 yillar mobaynida subindeks bilan proporsional o'zgardi. Jumladan, mamlakatimiz reytingda 33 pog'onaga ko'tarilib, 34,6 ball bilan 128 o'rindan 47,6 ball bilan 95 o'ringa ko'tarilish qayd etildi. Me'yoriy muhit ko'rsatkichi nisbatan past sur'atlar bilan o'sib, 42,2 ball bilan 129 o'rindan 49,9 ball bilan 107 o'ringa ko'tarildi. Mazkur reytingda 22 pog'onaga ko'tarilish kuzatildi. Tadbirkorlik muhiti ko'rsatkichining o'zgarishi yuqori baholanib, reytingda 45 pog'onaga ko'tarilish ro'y berdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatimiz 26,6 ball bilan 117 o'rindan 69,8 ball bilan 72 o'ringa ko'tarilishga erish. Shu jumladan, biznesni yo'lga qo'yishning soddaligi ko'rsatkichi 80 pog'ona qo'tarilib, o'sish sur'ati va mutloq darajada eng yuqori 37,4 ball bilan 88 o'rindan 96,2 ball bilan 8 o'ringa erishdi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarning o'sishi milliy iqtisodiyotning liberalallashtirilishi, valyuta, soliq va majburiy to'lovlar tizimidagi islohotlar, davlatning iqtisodiyotdagi o'rnining kamayishi va tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan erkinliklar hisobiga erishildi.

2023-yildagi hisobotda “Boshqaruv institutlari sifati” subindeksida Estoniya 81,1 ball bilan 22 o‘rin, Latviya 78,9 ball bilan 29 o‘rin, Qozog’iston 69,8 ball bilan 45 o‘rin, Ozarbayjon 65,5 ball bilan 58 o‘rin, Rossiya 63,1 ball bilan 67 o‘rin, Moldova 59,8 ball bilan 81 o‘rin, Belarusiya 57,8 ball bilan 85 o‘rin, Ukraina 56,2 ball bilan 91 o‘rin[9] egalladi. O‘zbekiston boshqa davlatlar ko‘rsatkichi bilan solishtirilganda nisbatan past o‘rin egallamoqda. Bu esa mamlakatamizda iqtisodiy o‘zgarishlarning muhim yo‘nalishlarini belgilab olish va islohotlarni davom ettirishni obyektiv zaruriyat qilib qo‘yadi.

Tadqiqotlarimizning natijalari mamlakatimizda mulkchilik munosabatlaridagi maishiy xizmatlar korxonalarini uchun qulay ishbilarmonlik muhit yaratilishiga qaratilayotganligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda davlat mulkini investisiya kiritish va bandlikni ta‘minlash shartlari bilan 0 qiymatda maishiy xizmatlar sohasi tadbirkorlik subyektlariga berish amaliyoti qo‘llanilmoqda. Bu o‘zining ijobjiy natijalarini bermoqda.

Shuningdek, respublikada iqtisodiyoti faoliyatini nazorat qilish va tartiblarni belgilashning yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizimni ishlab chiqishda takibiy emulyasiyani amalga oshirishga erishildi. Uning yordami bilan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga zid bo‘lmagan chora-tadbirlar, masalan, narxlar darajasi, tadbirkorlik subyektlari faoliyati va bank sektorida nazoratni qisqartirish, tadbirkorlik, savdo munosabatlarini rivojlantirishni haddan tashqari tartibga solishlardan holi bo‘lishlik amalga oshiriladi.

Iqtisodiy erkinlik indeksini tashkil etuvchi ko‘rsatkichlarni maisiy xizmatlar sohasini rivojlantiish asosida kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkich, deb olish mumkin. Indeks 12 ta ko‘rsatkichni (“mulkchilik huquqlari, sud xizmati samaradorligi, hukumat yaxlitligi, soliq yuki, davlat xarajatlari, fiskal salomatlik, tadbirkorlik erkinligi, mehnat erkinligi, pul erkinligi, savdo erkinligi, investisiya erkinligi, moliyaviy erkinlik) 4 ta guruhga, ya’ni, qonun ustuvorligi, davlat aralashuvi darajasi, tartibga soluvchi samaradorlik, bozor ochiqligi guruhlariga birlashtirgan”[10]. Indeksda 186 ta mamlakat ko‘rsatkichlari aks etadi va ular 100 ballik tizimda baholanadi. Indeks qiymati qancha yuqori bo‘lsa, davlat iqtisodiy jihatdan shunchalik erkinlik bo‘ladi. Olingan ballar bo‘yicha quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin:

- 0-49,9 ball iqtisodiyot mutlaqo erkin emas;
- 50-59,9 ball iqtisodiyot asosan erkin emas;
- 60-69,9 ball iqtisodiyot o‘rtacha darajada erkin;
- 70-79,9 ball iqtisodiyot asosan erkin;
- 80-100 ball iqtisodiyot butunlay erkin [11].


Ushbu reytinglarni tuzishda xalqaro moliya tashkilotlari, jumladan, Jahon Banki, Xalqaro valyuta Fondi ko‘rsatkichlari hamda mazkur davlatlardagi rasmiy ma’lumotlarga tayaniлади. O‘zbekistonning Iqtisodiy erkinlik indeksidagi o‘rni 2023-yil natijalari bo‘yicha 6 pog‘ona ko‘tarilib, 58,3 ball bilan 108 o‘rinni egalladi. 2017-2023 yillarda O‘zbekiston reytingda sezilarli ko‘tarilishga, 2017-yil 148 o‘rindan 2023-yil 108 o‘ringa erishgan bo‘lishiga qaramay, nisbatan past darajani egallab kelmoqda. Bu mamlakatimizni xalqaro reytinglarda o‘rnini oshirish, O‘zbekistonning nafaqat dunyo darajasida tan olinishi, balki amalga oshirilayotgan institusional o‘zgarishlar to‘g‘ri yo‘nalishda olib borilayotganligi anglatmoqda. O‘zbekistonning xalqaro reytinglarda o‘rnini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PF-5687-son “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish

to'g'risida” [12]gi va 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son “O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardi o'rmini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida” [13]gi Farmonlari bilan belgilangan. Mamlakatimizning halqaro reytinglardagi o'rning ko'tarilishi maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishga va kambag'allikni qisqartirishga ijobjiy ta'sir qiladi.

Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekistonning o'rni oshib borayotgan bo'lsada, barcha ko'rsatkichlarda bunday o'zgarish kuzatilmagan. Ba'zi ko'rsatkichlar 80-100 ball “iqtisodiyot butunlay erkin”, ba'zilari esa 0-49,9 ball “mutlaqo erkin emas” darajasini ko'rsatmoqda.

Quyida Iqtisodiy erkinlik indeksining O'zbekiston va butun dunyodagi ba'zi ko'rsatkichlarini maishiy xizmatlar sohasini rivojlantish asosida kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq jihatlarini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan shuni ko'rish mumkinki, mulkchilik masalalari qadimgi dunyodan to hozirgi kungacha faylasuflar va iqtisodchi-olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Mamlakatimizda ham mulkchilik to'g'risida qonun qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra “O'zbekiston Respublikasida mulkiy huquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza etiladi” [14].



**1-rasm. O'zbekiston va jahon mamlakatlarida mulkchilik huquqlari ko'rsatkichi [15]**

1-rasmda O'zbekistonda mulkchilik huquqlari va ularning himoya qilinish darajasini ifoda etadigan ko'rsatkich 2000-2008 yillar 30 ball, 2009-2010 yillar 20 ball, 2011-2016 yillar 15 ballni tashkil etib, o'rtacha dunyo darajasidan 15,6-28,6 ball past. O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar nafaqat bu, balki boshqa ko'rsatkichlarga ham ta'sir qilib, ularning darajasi o'rtacha jahon darajasigacha ko'tarildi, ba'zilari esa, undan ham yuqori natijaga erishdi. Jumladan, mulkchilik huquqlari ko'rsatkichi 2017-2023 yillar 48-58,4 ballni tashkil etib, 2020-2023 yillar o'rtacha dunyodan 2-4 ball yuqoriladi. Lekin, bu ko'rsatkich ham salbiy talqin etiladi, chunki 60 balldan kam bo'lishi “iqtisodiyot asosan erkin emas”ligini ko'rsatadi. Muayyan vaqtdagi shakllangan mulk huquqi masalan maishiy xizmatlar sohada mavjud iqtisodiy munosabatlar dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mulk bo'yicha qonuniy belgilangan imtiyozlar va ustuvor yo'nalishlar kuchli dastaklar sifatida chiqib, iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishga, jamoat manfaatlari tizimini shakllantirishga ta'sir qiladi. Mulk huquqi bo'yicha shakllangan ushbu ta'sir mamlakat aholisining asosiy qismiga maishiy xizmatlar sohasida band bo'lishida yoki shug'ullanishida ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi

mumkin. Chunki, markazlashgan rejali iqtisodiyotga ega mamlakatlarda tovarlar defisitini keltirganligini tarixda ko'rganmiz.

**Xulosa va takliflar.** Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kambag'allikni kamaytirish nafaqalar oshirish yoki kredit berish bilangina cheklanmaydi. Buning uchun aholini kasbga o'qitish, moliyaviy bilimlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, manzilli nafaqa tizimini joriy etish zarur.

O'zbekistonda maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha quyidagi takliflar mavjud:

- Ishsizlikni kamaytirish orqali aholining turmush darajasini oshirish, bunda davlat organlari va fuqarolar mas'uliyatini uyg'unlashtirish, jamiyat va xususiy sektor resurslarini jalb etish;
- Nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda tadbirkorlik ta'limi dasturlarini ishlab chiqish va maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish;
- Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali daromadlarni oshirish, zamonaviy uskunalar xarid qilish imkoniyatlarini kengaytirish, marketing va kooperatsiyani rivojlantirish;
- Ishga joylashtirish uchun kasbiy ta'lim tizimini kengaytirish, bozor talablarini hisobga olgan holda qulay sharoitlar yaratish;
- Mehnat unumdorligini oshirish orqali aholi daromadlarini ko'paytirish, kambag'al aholi uchun mikroklaster tuzilmalari orqali imtiyozli kreditlar va tomorqalardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PF-29-son farmoni. 03.12.2021 yil. <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamin Yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6277-son farmoni. 11.08.2021. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-son qarori. 03.12.2021 yil. <https://lex.uz>.
4. Kalonov M. "Kambag'allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi?" «Xalq so'zi» gazetasining 2021 yil 11 fevral 30-soni.
5. Abduramanov X.X. Demografiya sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning strategik yo'nalishlari // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. V son. Sentyabr - oktyabr, 2020. – 144-153 betlar. [https://journal.bfa.uz/maqola/BFA\\_maqola\\_5\\_son.pdf](https://journal.bfa.uz/maqola/BFA_maqola_5_son.pdf)
6. Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 betlar.
7. [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27\\_Ernazarova.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27_Ernazarova.pdf)
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони <https://lex.uz/docs/3107036>
9. WIPO Всемирная организация интелектуальной собственности. Глобальный инновационный индекс <https://www.wipo.int/publications/ru/series/index>.

10. Global Innovation Index 2023. Tracking Innovation through the COVID-19 Crisis. P.P. 30-31. [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo\\_pub\\_gii\\_2023.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2023.pdf)
11. Index of Economic Freedom <https://www.heritage.org/index/visualize>
12. Index of Economic Freedom <https://www.heritage.org/index/visualize>
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартағи “Халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилашга оид чоратадбирларни тизимлаштириш түғрисида”ги ПФ-5687-сон Фармони <https://lex.uz/docs/4230916>
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимили ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш түғрисида”ги ПФ-6003-сон Фармони <https://lex.uz/docs/4838762>
15. “Ўзбекистон Республикасининг мулкчилик түғрисида”ги Қонуни. 1-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1990 йил 31 октябрдаги 152-XII-сон Қонуни. <https://lex.uz/acts/111466>
16. Index of Economic Freedom <https://www.heritage.org/index/visualize>
17. Index of Economic Freedom <https://www.heritage.org/index/visualize>
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июндаги ПФ-5468-сон “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш Концепцияси түғрисида”ги Фармони <https://lex.uz/docs/3802378>
19. Index of Economic Freedom <https://www.heritage.org/index/visualize>
20. Фискал саломатлик-бюджет, солиқ ва божхона тизимининг фаолиятига сифатида баҳоланади
21. Index of Economic Freedom <https://www.heritage.org/index/visualize>

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**N<sup>o</sup> 11 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).